

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasinging falsafiy tahlili	33
--	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--



UO'K: 32(091):305.42

MUHAMMAD ABDO QARASHLARIDA AYOLLAR MASALASI

ВОПРОС ЖЕНЩИН ВО ВЗГЛЯДАХ МУХАММАДА АБДО

THE ISSUE OF WOMEN IN THE VIEWS OF MUHAMMAD ABDO

Hamroyev Nusrat Ixtiyorovich 

ISFT instituti "Gumanitar va tabiiy fanlar" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX-XX asrlarda yashab, ijod qilgan misrlik Islom huquqshunos va dinshunos olim, liberal islohotchi va Islom modernizmining asoschilaridan biri Muhammad Abdo (1849-1905)ning ayollar huquqi xususidagi qarashlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil va tadqiq etiladi.

Аннотация

В статье анализируются и изучаются социально-философские взгляды Мухаммада Абдуха (1849-1905), египетского исламского юриста и теолога, либерального реформатора и одного из основоположников исламского модернизма, жившего и творившего в XIX-XX вв., на права женщин.

Abstract

The article analyzes and studies the socio-philosophical views of Muhammad Abduh (1849-1905), an Egyptian Islamic jurist and theologian, liberal reformer and one of the founders of Islamic modernism, who lived and worked in the 19th-20th centuries, on women's rights.

Kalit so'zlar: Muhammad Abduh, Misr, Islom, huquq, Islom modernizmi, liberal, islohot, ayollar, ayollar huquqi, gender tenglik.

Ключевые слова: Мухаммад Абдо, Египет, ислам, право, исламский модернизм, либерал, реформа, женщины, права женщин, гендерное равенство.

Keywords: Muhammad Abduh, Egypt, Islam, law, Islamic modernism, liberal, reform, women, women's rights, gender equality.

KIRISH

Islomda ayollarning o'рни masalasida, turli sarlavhali maqolalar bor. Jumladan: "Islomda ayollar o'рни", "Islomda ayollar huquqlari", "Islomda ayollar maqomi", "Islomda gender tenglik" – bu kabi mavzular Sharq va G'arb olamida ayniqsa, Yaqin Sharqda, musulmon-arablar jamiyatida o'tgan asr davomida qizg'in munozaralar mavzusi bo'lib kelgan. Hozirda butun dunyoda globalashuv jarayoni ta'siri ostida bu kabi mavzular orasida turli bahs-munozaralar Markaziy Osiyoda ham rivojlanib borayotgan ilm-fanning asosiy e'tiborida bo'lib qolmoqda. Shuningdek, zamonaviy Islom islohotchiligidan namoyondalari ko'pincha o'z nutqlarida gender tenglik masalasiga murojaat qilishadi. Ushbu namoyondalarning islohot loyihalarida ko'pincha gender masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lsada, lekin bu mavzu ko'pincha umumiy va yuzaki tarzda yoritilgan.

Misrlik islohotchi olim Muhammad Abdo ham gender tenglikni o'z yozishmalarida tez-tez tilga olgan bo'lsada, uning bu masalaga doir qarashlari kam o'rganilgan. Bu bobda ikki asosiy qarash: gender tenglik va islohot masalasiga chuquroq yondashib, bu masalalarini o'zaro bog'liqlikda o'rganamiz. Turli umumiy kitoblarda "Islomiy islohotlarning otasi" deb atalgan Shayx Muhammad Abdo ijtimoiy islohotlar loyihalarida, ko'pincha "xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini isloh qilish" ostidagi mavzularga bir necha sahifalar bag'ishlangan va bir nechta risollar yozgan. Ushbu tanqidiy fikrlovchi olimning gender bo'yicha qarashlariga nisbatan noaniq yondashuvlar, ko'pincha asossiz umumlashmalar bilan berilgan. Ushbu bobda Abdoning ayollar haqidagi shaxsiy qarashlarini batafsil o'rganish va tahlil qilish orqali uning g'oyalari, o'ziga xos xususiyatlari, unda qo'yilgan savollar va berishga urinayotgan javoblari hamda undagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni aniqlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gender masalasini musulmon dunyosining globallashuv bilan to'qnashuv davriga javoban muayyan tarixiy bir davrda paydo bo'lgani va islohot jarayonlarning kengroq bahslariga sabab bo'lganni butun, Sharq musulmon mamlakatlarida kuzatishimiz mumkin.

Abdo ham Sharqning bu qizg'in bahslarini o'z risolalarida rivojlanishiga va muhokamasiga bevosita hissa qo'shgan. Abdo ayollar va gender tengligi masalasini turli raqiblaridan farqli ravishda o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadi, bu muhokamalarda zamonaviy "musulmon feminizmi" atamasining ko'p va xilma-xil tomonlari ko'rib chiqiladi. Musulmon feminizmi Abdoning islohotchi qarashlariga ham ta'sir o'tkazib, keng doirada izchil tarzda ta'sir qildi.

"Xotin-qizlar islohoti"ga yondashuvlar va uslublar juda xilma-xil bo'lib, Islom dinining meyoriy manbalariga yuzaki yondoshadiganlar yoki bu manbalarni atayin o'zgartirib (missionerlik nuqtayi nazardan) talqin qilishga asoslangan yondashuvlar o'rtasida juda katta farq bor. Musulmon jamiyatlarining tarixi va evolyutsiyasini shakllantirgan asosiy manbalar Qur'on, Hadis va Sunnatdir, ulardan ishlab chiqilgan Islom huquqshunosligi merosi hozirda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Bu manbalarning markaziylikini tan oladigan va ularni o'z shartlari asosida tushunishga harakat qiladigan yondashuvlar musulmon jamiyatlarini jalb qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bu sohaga qiziqishning kuchayishiga sabab musulmon ayollarning turli sohalarini qamrab olayotganligidir.

G'arbda ommaviy axborot vositalari orqali Islomdan qo'rqish – Islomofobiya shakllantirilgandan beri, G'arb tafakkurida muslima ayollarning jamiyatdagi ishtirokining qoloqligi, o'z yerlariga haddan tashqari bog'lanib qolganligi, kundalik hayotda eskicha tarzda ish yuritishi, ayniqsa kiyinish borasida yopiq kiyimlar hijob orqali o'zlarini ozodlikdan mahrum etilganligi kabi noto'g'ri fikr yuritish shakllandi.

Ularning ichida juda ko'p yondashuvlarni ikkita keng yo'nalish – "Islomiy islohotchi" va "musulmon feminizmi" yo'nalishlari ko'proq muhokama qilinadi. Har ikkala yondashuv ham o'z dalillari va nutqlarini Qur'ondan, Hadisdan Islom tafakkuri va amaliyotidan olib markaziy meyoriy qonunlarni asoslashga va uni zamonaviy talablarga javob sifatida qayta talqin qilishni taklif qiladi. Biroq ular sunnatni, Islom fiqhi merosini baholashda, qayta talqin qilish va tarjima qilishda turli og'ib ketish va o'zgartirishga uchrashgan.

Islom feminizmi ko'pincha yangi "liberal islohotchi" larning g'oyaviy bir qismi sifatida, "Islomiy islohotchilarga" qarama-qarshilikda vujudga kelgan. "Liberal islohotchilik" tendensiyasiga ko'ra Islom va zamonaviylik bir-biriga qarama-qarshi yemas, balki bir-biriga mos keladi, bu yesa asrning so'nggi yillarida siyosiy Islomga ichki javob sifatida paydo bo'lgan islohotchilar Muhammad Arkun, Nasr Abu Zayd va Abdulkarim Surush kabi musulmon mutafakkirlarining g'oyalarida uchraydi.[1] Shunga qaramay, o'z mavqeini mustahkamlash uchun musulmon feminizmi Islomiy doira ichidan chuqurroq ildizlarni topishga intilish tendensiyasini rivojlantirdi. Yuqorida muhokama qilingan ikki yo'nalish o'rtasidagi bahs XIX asrdagi islohotchilik harakatini o'zlashtirib olish va Muammad Abdo kabi arboblarning merosxo'ri bo'lish uchun yagona da'voni qo'yishga intilgan olimlar orasida kuchayadi. Bu islohotchi maktab asoschilari va ularning turli oqimdagi shogirdlari jumladan, Misrda Qosim Amin, Tunisda Ohir Al-Haddod o'zlashtirishga harakat qilgan. Musulmonlarning ayollar masalasiga doir chegaralarga qarama-qarshi tomonlar ham shunga o'xshash urinishlarini amalga oshirgan. Bugungi kungacha bu urinish davom yetib, qonuniylik va vakillik uchun kurashda ham o'z aksini topmoqda. Bu musulmon jamiyatlarida gender bo'yicha bahslarning murakkab tabiatiga, uning yevolyutsiyasida siyosiy va tarixiy o'lchovlarning uyg'unligiga ishora qiladi.

"Arab ayollari harakati" tarixini ko'pincha Qosim Amindan boshlanadi. Arab dunyosidagi hozirgi intellektual va siyosiy sahnaning qutblanishiga Qosim Aminning hissasi katta bo'lib, boshqalar tomonidan o'zlashtiriladi. Holbuki, Aminning yozuvlari, munosabatlari ayollarga nisbatan bunday soddalashtirishni rad yetadi.

"Musulmon feminizmi" haqiqatda Abdoning islohotchi qarashlardga ta'sir o'tkazadi, Abdoning gender haqidagi fikrlari "tartibsiz" bo'lib, ularni alohida aniq bir kitoblarda topish mumkin yemas, uslubi jihatidan xilma-xil bo'lib, turli ommaviy axborot vositalari orqali tarqalgan: maqolalar, risolalar va maktublardan tortib, fatvolari, nutqlari va tafsir ma'ruza matnlarigacha shogirdi tomonidan yozib olingan, umumlashtirilgan va kengaytirilgan, muhokama qilingan. Ulardan Abdoning ayollar haqidagi fikrlarini ajratishgina uning qarashlarini bu borada qandayligini namoyon etadi.

Abdoning intellektual va amaliy islohot harakatlari turli ko'rinishlarga yega bo'lsa-da, diniy asosdagi axloqiy va ijtimoiy islohotlarga qaratilgan edi. Uning ayollar haqidagi yozuvlari xuddi shu tamoyilga amal qilgan, asosiy mavzular ayol-qizlarning ta'lim, oila qonunchiligini isloh qilish,

FALSAFA

yangiliklarni olib kirish va ayollarning tabiati haqidagi noto'g'ri tushunchalarni tuzatish uchun Qur'ondagi ayollar borasidagi yozilganlarni chuqurroq talqin qilishga bag'ishlangan. Masalan, "ayollar ozodligining otasi" Qosim Amindan farqli o'laroq, Abdo ayollar haqida barcha bahsli masalalarni qamrab oluvchi kitob, hatto maxsus maqola yozishni maqsad qilgan emas. Uning ayollar haqidagi asarlari shariat hukumlarini isloh qilish, Qur'onning zamonaviy talqini yoki ta'limni rag'batlantirish kabi kengroq masalalarga bag'ishlangan. Uning ayollarga bag'ishlangan fikrlarida ta'lim, oila qonun islohoti va ayollarning tabiatiga oid oyatlarning talqinidan tashqari, ayollar haqidagi boshqa zamonaviy nutqlarda tez-tez uchraydigan ayrim mavzular, masalan, ro'mol o'rash va yolg'izlik, ayollarning jamoat ishlaridagi ishtiroki yoki ayollarning mehnati kabi mavzular Abdoning asarlarida yo'q.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Abdoning yuqorida aytib o'tilganidek, ayollarga bag'ishlangan asar yozmagan, uning ayollar haqida yozgan asarlari butun ijodining 10% dan ko'pini tashkil etmaydi. Abdoning yozuvlari ko'pincha umumiy va noaniq bo'lib, ko'plab fikrlarini birlashish orqaligina uni anglash imkoniyati paydo bo'ladi. Uning fikrlari qishloq yoki shahar, boy yoki kambag'al ayollarga turlicha ta'sir ko'rsatgan, g'oyalari bir xil bo'lmagan amaliyotlarni o'z ichiga olgan. Abdo, yehtimol, ularni ayri holda muhokama qilish, mustamlakachilar nutqida ta'kidlanganidek, yanada qutblanish tabaqalanishga olib keladi, bir xil fikrda bo'lish Abdo nazdida ayollar orasida qat'iylik va himoyalaniishga hissa qo'shishi kerak deb hisoblagan.

Abdoning xotin-qizlar haqidagi fikrlari ichida asosiy e'tiborni qaratgan mavzu: oila huquqi – erkaklar va ayollarning oila haqidagi tushunchalari hamda Islomning nikoh, ko'pxotinlilik va ajralish haqidagi hukmlarini isloh qilish va bu qonunlarni qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Abdoning bu sohalar haqidagi qarashlari uning maqolalari, tafsir va fatvolaridan olingan. Jumladan, Qosim Amining "Tahrir al-Mar'a" kitobida Abdoga bag'ishlangan boblarda shunga nisbat berilgan. Bundan tashqari, Abdoning oila huquqini isloh qilish bo'yicha takliflaridan ko'ra, kamroq e'tiborga olinadigan jihati, uning sharhida ayollarning tabiati, mohiyati va tengligi haqidagi fikrlarini muhokama qilishda erkak va ayolning yaratilishiga oid oyatlarni tahlil qilish asosida berilgan g'oyalardir. Jumladan, "Ey insonlar! Sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratgan va undan juftini (Havvoni) vujudga keltirgan hamda u ikkovidan ko'p erkak ayollarni tarqatgan Parvardigoringizdan qo'rqingiz!" [2]

Abdo haqidagi aksariyat asarlarda "Abdo va ayollar" yoki "Abdo va ayollar islohoti" ga bir necha satr yoki bir necha sahifa bag'ishlagan bo'lsa-da, ko'pincha "Abdo va ijtimoiy islohot" ostida, faqat bir nechta asar yaqindan o'rganishga harakat qilgan. Abdoning fikr va islohot faoliyatining shu jihatida ular Abdo va ayollar haqidagi umumiy ma'ruzalardan tortib, tegishli xulosalar bilan, lekin matnlarning batafsil tahlilisiz, nikoh, ajralish, ta'lim yoki ko'pxotinlilik kabi mavzuning bir jihatini batafsilroq tahlil qilishgan.

Samira Hojning "Islom an'analari qayta qurish: islohot, ratsionallik va zamonaviylik" asari yuqorida tavsiflangan mazmundagi asarlarga kiradi. Hojning so'zlariga ko'ra, Abdoning maqsadi "ortadoks Islomiy qarashlarni qayta tartiblash orqali saodat asri haqiqiy Islomini tiklash orqali, u yangi zamonaviy sharoitda ijtimoiy amaliyotda dinning o'rnini tartibga solish, isloh qilishga harakat qilardi". [3,74] Abdo ta'lim, huquq va oila institutlarining islohotiga bog'liq bo'lgan "yangi musulmon subyektini qurish", jamiyat manfaati uchun g'amxo'rlik bilan axloqiy ahamiyatga ega bo'lishini nazarda tutgan nazariy-amaliy qarashlarni ilgari suradi.

Hojning ta'kidlashicha, bu qarash "Yevropaning liberal zamonaviy jamiyatining nusxasi emas, balki subyektiv o'z an'analarga sodiqlik Islom an'anasi doirasidagi uzoq yillik tarixga asoslangan axloqiy meyorlardir". Hojning so'zlariga ko'ra, "o'zining birinchi bo'lib musulmon xalqini jonlantirish strategiyasiga muvofiq Abdo oilaga axloqiy rivojlanish joyi" sifatida katta ahamiyat bergan. Hoj Abdo qarashlarida ayniqsa mo'tazililarning ratsionallilik g'oyalarini va Al-G'azzoliyning o'zlik germeneytikasi va gnoseologiyasi borligini ta'kidlaydi. [4]

Hojning ta'kidlashicha, "Abdo bo'lajak oilani ham nuklear, ham monogam bo'lishini tasavvur qilgan; nikoh ikki voyaga yetgan shaxs o'rtasidagi sevgi, rahm-shafqat va o'zaro hurmatga asoslanishi kerak". [3,127] Hoj Abdoning nikoh haqidagi qarashlarini o'rganib, nikohning an'anaviy shaklini maqullagan va uyushtirilgan nikohni tanqid qilishi, shuningdek, uning ko'pxotinlilikni boshqa diniy konfessiyalar tomonidan ayollarni kamsitilishi deb qarashlarini inkor yetib, ko'p nigohlilikni alohida ajratish va parda o'rnatishga qarshiligi haqidagi dalillarini faqat "Tahrir-al-Mar'a" ning

boblariga va Qosim Amin kitobining “Abdoning oila haqidagi qarashlari” bobiga asoslanib taqdim yetadi.

Hojning Abdoning nikoh va ajralish haqidagi qarashlarini tahlil qilishdagi asosiy zaifligi shundaki, u o'z xulosalarini Qosim Aminning “Tahrir al-Mar'a” asaridagi nikoh, ajralish va ko'pxotinlilik boblaridan asoslaydi. Foydalanilgan boblar atamasidagi noaniqlik bilan bir qatorda, Hoj Abdoning “Tafsir” va maqolalarida ifodalangan ushbu mavzular bo'yicha qarashlariga ishora qilmaydi yoki tahlil qilmaydi.

Fahmi Tofiq Muhammad Makbulning nomzodlik dissertatsiyasi: “XIX asrda Misrda Shayx Muxammad Abdo va uning guruhi”[5] ga alohida e'tibor qaratgan holda islohot konsepsiyalarining rivojlanishi tezisning yetti sahifasida “Abdoning ayollar haqidagi qarashlari” mavzusiga to'xtalib o'tadi. Makbul Abdo tafsirida ayollar tengligi tushunchasiga urg'u beradi. Hoji singari, Makbul Imro, al-Tavil, Hurani va Vatikiotisdan yordam uchun iqtibos keltirgan holda, Abdoning “Aminning yozuvlari bilan” bog'liqlikni taxmin qiladi.

Hoda Helmi Abdoning Misr ayollari va oila huquqi islohotiga bag'ishlangan tezislarida Misrning zamonaviy feministik harakatining ildizlarini ko'radi. Islohotchilik harakatini boshlagan Al-Tahtaviydan so'ng, Helmi Abdo va uning guruhni harakatini ozodlik bosqichi[6] sifatida ta'kidlaydi. Helmi bu bosqichda ayollarning mavqeidagi taraqqiyotni “Hadiv Ismoil, Muhammad Abdo va uning shogirdlari kabi ziyolilarning jasorati” bilan izohlaydi. Helmi ta'kidlaydi Abdoning qiz-ayollar uchun qilgan ma'ruzalarida ayollarning ta'limi ma'vusidan ko'ra, ko'proq ularning nikoh munosabatlarini isloh qilish va ko'pxotinlilik va ajralishni cheklashga chaqiradi.

Muhammad Abdoning to'liq asarlarini tuzuvchi Muhammad Imra o'zining “Muhammad Abdo nazarida Islom va ayollar” asarida Abdoning ayollar haqidagi fikrlarini muhokama qiladi. Imora Abdo “ma'rifatli musulmon aqli bilan Qur'on va Sunnatga nazar tashlab, ular ichidan Islom olamidagi kasalliklarga davo topish uchun foydalangan, u bizning zamonaviy jamiyatlarimiz xususan, oilaviy hayot Islom ijtimohiga yeng katta sa'y-harakatlarni amalga oshirgan kishidir”.[7] Samara Hajning tadqiqotidan farqli o'laroq, Imora Abdoning oila islohoti haqidagi yozganlarini o'zining tafsir va fatvo maqolalarida ko'rib chiqadi. Imora ta'kidlaydiki, “agar musulmon dunyosi al-Ustoz al-Imom tomonidan oila masalalari, xususan, nikoh, ajralish va ko'pxotinlilik bo'yicha qabul qilingan ilg'or ma'rifiy pozitsiyalari bo'lmaganda hozirda orqada qolgan bo'lardi”.

Imora Abdoning oila huquqi islohoti va milliy islohot qarashlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi, bunda oila kuchli isloh qilingan birlashgan millatning asosiy bo'g'inini bo'lishi kerakligi, o'sha paytdagina millat o'zligini anglab, himoya qila oladigan darajaga yetadi. Imora Abdoning Misr oilasining “parchalanishi” haqidagi xavotiriga e'tibor qaratib, bu vaziyatda ayollarni ayblamagan va boshqalardan farqli o'laroq, oila mustahkamligida faqat ayollarga mas'uliyatli bo'lishni talab qilish xatoligini aytib o'tadi va erkaklar zimmasiga ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Abdo ushbu muammoga yuzaki qarashda bo'lganlarni, erkaklar va ayollar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarga shariat nuqtai nazarini noto'g'ri tushunish deb baholaydi. Imora Abdoning ayollarga nisbatan kamsituvchi qarashlarni Islomgacha bo'lgan johiliy qarashlari bilan bog'laydi, bu qarashlardan Islom ayollarni ozod qilgan va ularga erkaklar bilan teng huquqlar bergan degan Abdo fikrlari bilan izohlaydi. Imora Abdoning “Islomdan oldin odamlar ayollarni ijtimoiy hayotlarining muvaffaqiyati yoki buzilishi uchun muhim deb bilishmagan, toki vahiy ularga buni o'rgatguncha” degan fikrini ta'kidlaydi. Biroq, “har bir davrdagi odamlar vahiydan faqat o'z toqati bo'lgan darajada hukm oladilar, Qur'onning oilani isloh qilish - ayollarga yaxshi munosabatda bo'lish haqidagi hukmlari ummat tomonidan to'liq tatbiq yetilmagan, aksincha, unutilgan holda jaholatga qaytilgan”. Imora Abdoning Islomgacha va undan kegingi davrda ham Qur'on ayollar ozodligining ideal ifodasi sifatida belgilashda muhim ahamiyatga yega va idealni amalda qo'llash lozim degan fikriga qo'shiladi.

Bu tamoyil, Islomning ozodlik tamoyillariga e'tibor qaratgan, ularning musulmon jamiyatlaridagi nomukammal ifodasini ajratmasdan, birinchi musulmon jamiyatini to'liq ideal model sifatida ko'rsatgan keyingi islohotchilar tomonidan ham, Abdoning tanqidchilari tomonidan ham ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan tamoyildir. Imora Abdoning “huquq va burchlarda erkak va ayol o'rtasidagi haqiqiy tenglik”ga bo'lgan ishonchini ta'kidlaydi va bu tenglik Abdoning rollarni taqsimlash zarurati bo'lgan oila ichidagi erkaklar rahbarligiga urg'u berishi o'rtasida hech qanday qarama-qarshilik ko'rmaydi.

Imora Abdoning ushbu yetakchilik va uning oqibatlarini masalan, tartib-intizom borasida oqlashini qabul qilsa-da, u bu asoslashning o'ziga xos “tabiiy va orttirilgan” yetakchilik xususiyatlariga asoslanganligini va shuning uchun mutlaqo erkaklar bilan cheklanib qolmasligini

FALSAFA

taklif qiladi. Intizomga nisbatan Imora Abdoning yerning “tartibga solish” huquqini meyoriy bo‘lishidan tashqari, balki ma’naviy jihatdan maqtovga loyiq bo‘lishi, yerning ma’naviy ustunligi ayolga nisbatan cheklangan deb hisoblaydigan gaplariga qaratadi, lekin buni tabiiy deb hisoblaydigan boshqa bayonotlarga izoh bermaydi. Imora o‘z kitobida Abdoning ayollar haqidagi yozganlarini chuqur tahlil qilish va kontekstualashtirishdan ko‘ra, ko‘proq tafsirdan Abdoning nikoh, ajralish, ko‘pxotinlilik va tenglik haqidagi qarashlariga bag‘ishlangan maqola va bo‘limlarni to‘playdi. Qizig‘i shundaki, u Qosim Aminning “Tahrir al-Mar’a” asaridagi nikoh, ajralish, ko‘pxotinlilik va hijob bo‘limlarini o‘z ichiga olmaydi, garchi u Abdoning to‘liq asarlarini jamlagan bo‘lsa-da, u to‘liq ishonarli bo‘lmasa-da, to‘plamlardagi qarashlarni qat’iy fikr bildirib Abdo tomonidan yozilgan degan da’voni qo‘llab-quvvatlaydi. Imoraga ko‘ra, Abdoning ayollar haqidagi yozganlari “ratsionalistik ma’rifatli Islom ijti hodining hissasi” bo‘lib, ular mazmunida “Islom matnlarini talqin qilishning ilg‘or Islom metodologiyasi”ni ko‘rish mumkin.

Fotima Uzuil Imoraning Abdoning ayollar va ularni ozod qilish haqidagi fikriga qo‘shiladi, lekin uning davridan beri hech qanday taraqqiyot yo‘qligidan afsuslanadi: “Haqiqatda, Muhammad Abdoning ayollar oila, jamiyatdagi huquqi erkaklar bilan teng huquqa yega bo‘lishi borasidagi hissasi ushbu jarayonning bir qismi sifatida muhim asos bo‘lgan qadam edi. Bu mavzular o‘sha davrda taraqqiyotga sezilarli darajada o‘zgarish qila olishini ko‘ra bildi. U hali ham mavjud bo‘lgan muammoni hal qilish uchun asos yaratdi. U taraqqiyotga zid bo‘lmagan va musulmon ayollarning bir qator huquqlardan foydalanishiga to‘sqinlik qilmaydigan diniy matnlarni ma’rifiy o‘qishga harakat qildi. Uning fikricha, dining patriarxal hukmronlikni o‘rnatish, intellektual turg‘unlik va ijtimoiy tanazzul holatiga olib keladi”.[8]

Imora Abdoning ayollar haqidagi yozganlarida Abdoning ma’rifatli, ilg‘or va radikal tomonlarini ta’kidlagan bo‘lsa, Fraj Ben Romazan, aksincha, xuddi shu asarlardagi kamchiliklar, noaniqliklar va qarama-qarshiliklarni ochib beradi. Ben Romazan o‘zining “Qadiyyat al-Mar’a fi-Fikr al-Nahda” asarida Nahda maktabi (arab uyg‘onish davri islohot maktabi) islohotchilari fikriga qaramay, xotin-qizlar ta’limi va oila huquqini isloh qilishni rag‘batlantirishda, ba’zi bir nazariy asoslarga murojaat qilganda, juda ko‘p qarama-qarshilik va chalkashliklarni topadi. Yeng muhimi, islohotchilar erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik tamoyilini qo‘llab-quvvatlagandek tuyulsa-da, ularning gender iyerarxiyasini, xususan, oilada ayol o‘rni borasida Islom nuqtai nazaridan gapiradiganlarning barchasiga xos xususiyatga aylangan asosiy qarama-qarshilikni ochib beradi.[9] Bu qarama-qarshilik, Ben Romazanning fikriga ko‘ra, o‘sha paytdagi boshqa amaliy dolzarb muammolar singari, ayollar islohoti sababining amaliyotda dolzarbligini ko‘rsatadi, bu yesa nazariy muvofiqlikdan ko‘ra, amaliy natijalarga ko‘proq e’tibor qaratilayotgan bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan nazariyalarning shoshilinch shakllantirilishiga olib keldi.

Islohotchi maktabning xotin-qizlar masalasiga yondoshuviga yana bir tanqid, bir tomondan, xotin-qizlarni shaxs sifatida cheklash, ikkinchi tomondan, ayollarni ijtimoiy islohotlar quroli sifatida bo‘rttirib ko‘rsatish edi. Ijtimoiy rollarning gender bo‘linishini, ayollarni isloh qilishni qandaydir sehrli islohot tayoqchasi sifatida hamma narsaning boshlang‘ich nuqtasi va kalitiga aylantirdi. Ben Romazan buni islohotchilarning muvaffaqiyatsiz islohot urinishlaridan so‘ng, ularni ayollar islohoti, xususan Tahar al-Haddod misolida boshpana izlashga olib kelgan shaxsiy tajribasi ifodasi deb biladi. Ben Romazan ijtimoiy rollarning tabiiy taqsimlanishiga ishongan va oila institutini ulug‘lagan islohotchilarning nuqtai nazarini jumladan Abdoni qo‘llaydi. Biroq, Ben Romazan mustamlaka qilingan jamiyatlarning madaniy bosqinga qarshi qarshilikning so‘nggi sohasida panohtopishi natijasida yuzaga kelgan bu xususiyatlarning klassik nuqtai nazariga amal qiladi va bu e’tiqodni o‘sha paytda keng tarqalgan zamonaviy burjua oilasi kultining yuksalishi bilan bog‘lamaydi. Ben Romazan tomonidan ta’kidlangan yana bir “parados” - bu fikrlarning muallifi va uning obykti o‘rtasidagi nomuvofiqlik, chunki ayollar mavzusida yozganlarning barchasi erkaklar edi. Erkak olimlardan oldin ham bu mavzuda yozgan ayollar bo‘lgan, ammo erkak islohotchilarga haddan tashqari urg‘u berilganligi sababli adabiyotlarda ularning yozganlari uchramaydi. Shuningdek, u konservatorlar tarafdorlarini tinchlantirgan, gender mavzusida nazariy jihatdan yozgan yoki amalda qo‘llagan keyingi kishilarga yo‘l ochgan, ya’ni “arab musulmon ayollarining ahvoli” degan samarali g‘oyani ishlab chiqqan islohotchilik tendensiyasini yaratdi. Ayollarning Islomga hech qanday aloqasi yo‘q deganlarga javoban Islom ayollariga yuksak maqom bergan va ularni oila, jamiyatdagi o‘rnini isloh qilishga chaqirgan. An-Nahda maktabning islohotchilari va Abdoning ayollar haqidagi asarlaridagi nomuvofiqlikka qaramay, Ben Romazan ikkala fikrining umumiy bog‘liqligini ta’kidlaydi,

bu savolni muhokama qilishda “noto’g’ri metodologiya, bo’rttirilgan xulosalar va umumlashtiruvchi hukmlar” yaqqol namoyon bo’ladi. Umuman olganda, butun An-Nahda harakatida ayollar “aniq maktab va ushbu nozik tarixiy davrning aniq ifodasi” sifatida mavjud bo’lib, bu ijtimoiy sharoitlarni tanqid qilish va ularni o’zgartirish uchun harakat qilishda yeng samarali harakatdir.

Monji al-Chemliy “Qadiyyat al-Mar’a fi-tafsir al-Manar” asarida “Tafsir al-Manar” da ayollar masalasi haqida gapiradi. Chemliy fikriga ko’ra, Tafsirning ajralmas tabiatini na Abdoga, na Ridoaga to’liq bog’lab bo’lmaydiganligini tan oladi va shuning uchun “Tafsir al-Minar” ga umumiy tarzda murojaat qilishni afzal ko’radi. Ammo to’plamdagi ko’p tavsirlarni Abdoga nisbat beradi. Chemliy Al-Minarining ayollarga bo’lgan qarashlarini aniqlash qiyinligini ta’kidlaydi, chunki u klassik tarzda emas, balki tematik jihatdan tartibga solinadi, lekin unda ko’rib chiqiladigan gender bilan bog’liq asosiy muammolar quyidagilardir: erkaklar va ayollarning tengligi, ko’pxotinlilik, ajralish, ayollarning ta’lim-tarbiyasi va jamoatchilikdagi ishtiroki va hijob. Gender tengligi masalasida “Tafsir al-Minar” ayollarning maqomini isloh qilish vositasi deb talqin qilish hozirgacha dolizarbligini yuqotgani yo’q.

Chemliy Abdoning Islomda ayollarga nisbatan yuqori munosabatga urg’u berishiga asosanib, “Tafsir Al-Minar”ning Islomning ayollarga nisbatan tutgan pozitsiyasiga mutlaq mudofaaviy yondashishi va tarixiy tekshiruvdan o’tmagan umumiy hukmlar va konservativ salafizmga xos bo’lganini[10] qayd yetadi. Chemliy Abdoning “Surat ul an-Niso” tafsirini ta’kidlab, ayollarning huquq va majburiyatlarda erkaklar bilan tengligini ta’kidlaydi. Biroq, bu tenglik mutlaq emas, chunki rahbarlik tafsiriga tayanib, erkaklarga yuklanadi. Abdoning ratsionalistik konsepsiyasiga asosan “agar ayollar o’zboshimchalikdan xoli bo’lganda, jozibador bo’lish xususiyatiga asoslanmagan” bo’lmaganida yetakchilik ularning qo’liga o’tardi, erkaklarning yetakchiligini ularning “manfaatlarni ko’proq bilishi va ko’proq kuch-qudratiga asoslanganligi uchun”, deb biladi. Biroq, Chemliy noto’g’ri ravishda erkaklar yetakchiligining keyingi asosini Abdoning - ayollarning moliyaviy tengsizlikda deb o’ylagan faraziy fikri bilan bog’laydi - bu aslida Ridoning o’z yozuvlarida ifodalangan nuqtai nazari hisoblanadi.

Chemliy Abdo va Ridoning ko’pxotinlilikka oid qarashlari o’rtasidagi farqni ta’kidlaydi. Abdoning 1881-yildan beri ko’pxotinlilikka oid qarashlarida Misr jamiyati uchun zararli va uning islohotiga to’sqinlik qiladi, ko’pxotinlilikka oid Qur’on oyatlarining cheklovchi xususiyatini ta’kidlab, ko’pxotinlilikni Qur’onga to’liq asoslashdan to’xtamaydi. Bundan farqli o’laroq, Ridoning nuqtai nazari ko’proq konservativdir, ko’pxotinlilikni cheklangan va shartli tabiatini tan olgan bo’lsa-da, ko’pxotinlilikning an’anaviy asoslariga yopishib olish uning qarashlarida seziladi. Ajralish haqida Chemliy Abdoning oila va ijtimoiy barqarorlik haqida qayg’urganligi sababli ajrashishni ma’qullamaganligiga e’tibor qaratdi. U Abdoning ayollarning ajralish imkoniyatini kengaytirishiga e’tibor qaratmaydi.

XULOSA

Abdoning ayollar haqidagi yozganlarini tahlil qilish, ularni tarixiy davrdan kelib chiqib, o’zining islohotchi qarashlari doirasida o’z davridagi ayollar haqidagi turli zamonaviy munozaralarni o’rganish lozim. Abdoning arab ayollari islohotiga qo’shgan hissasini ajratib ko’rsatish va tahlil qilish, Misr va arab gender masalalarining keyingi evolyutsiyasi va tabaqalanishini tushunish va XIX asr oxiridagi tafovutlar va o’zlashtirishlarning hozirgi tahlillarini baholash uchun foydali topilmalar beradi. XIX asr oxiridagi Islomiy islohotchilarning gender haqidagi qarashlari uning kabi batafsil o’rganilmagan, garchi u o’zining murakkab va boy tabiati tufayli musulmon dunyosidagi gender bo’yicha asosiy munozaralarga ta’sir qilishda davom yetib kelayotgan bo’lsada yanada jiddiy va chuqur tahlilni talab yetadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ziba Mir-Hosseini. Voices of Islam, , Voices of Change, edited by Vincent Cornell, Omid Safi and Virginia Gray Henry.//Westport, Connecticut and London. Volume 5. 2007. pp. 85-113, p. 101.
2. Niso surasi, 1-Oyat manolar tatjiması shayx Alouddin Mansurga oid.
3. Samira Haj. Reconfiguring Islamic Tradition: Reform, Rationality, and Modernity, Stanford. -CA.: Stanford University Press.2009. - P. 74.
4. Ibrahim Moosa. Ghazali and the Poetics of Imagination Chapel Hill. -NC: University of North Carolina Press.2005. -P. 111.
5. Victoria University of Manchester Burney, Lester.Cross Strett Chapel Manchester and its College. – Manchester.: L.Burney. 1983.84 p.
6. Helmy.The status of women in Islam: A comparative study with particular reference to Egypt. // PhD Thesis: University of Wales. Lampeter.1994. -P. 283.
7. Imora. 1975: Al-Islom wa’l-Mar’a fi Ra’y Muhammad Abduh. –Cairo: Al-Qohira Lil-Thaqafa al-Arabiyya. 1975.

FALSAFA

8. Fatima Ouzouil Zahra Ozraouil. Al-Mas'ala al-Nisa'iyya filfi'l Khitab al-'Arabi al-Hadith. –Cairo.: al-Majlis al-A'lalil-thaqafali'l-Thaqafa. 2004. - P. 322.
9. Fraj Ben Romazan. Qadiyyat al-Mar'a fi Fikr al-Nahda, Sfax. –Tunisia: Dar Muhammad 'Ali al-Hammi. 1988.
10. Monji el-Chemli. Qadiyyat al-Mar'a fi Tafsir al-Manar. -T.: Hawliyyat al-Jami'a al-Tunisiyya. T.3.1966. pp.5-27.